

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MANTIQIY VA TANQIDIY  
FIKRLASH SAVODXONLIGINI OSHIRISH**

**Karimova Sevara Shaxriddin qizi**

Buxoro innovatsiyalar universiteti “Pedagogika, psixologiya va sport” kafedrasи o‘qituvchisi.

+998971235191 [sevarakarimova141@gmail.com](mailto:sevarakarimova141@gmail.com)

**Umarova Charos**

Buxoro innovatsiyalar universiteti, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-kurs.

+998994743100 [Marovacharos310@gmail.com](mailto:Marovacharos310@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14216279>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy va tanqidiy rivojlantirishning muhim masalalari, “mantiq” va “tanqid” tushunchalarining uyg‘un va mushtarakligi haqida ma’lumotlar yoritilgan. Boshlang‘ich sinf dasturlaridagi barcha fanlarining o‘quvchilarida shaxs kamoloti elementlarini tarbiyalashdagi ahamiyati va intellektual qobilyatlarini rivojlantirish xususida fikr boradi.

**Kalit so‘zlar:** Matiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, topshiriqlar, matematik qobiliyatlarini o’stirish, diagrammalar, xalqaro tadqiqotlar.

**IMPROVING LOGICAL AND CRITICAL THINKING LITERACY OF  
PRIMARY CLASS STUDENTS**

**Abstract.** This article covers important issues of logical and critical development of elementary school students, information about the harmony and commonality of the concepts of "logic" and "criticism". The importance of the elements of personality development and the development of intellectual abilities in students of all subjects in primary school programs is considered.

**Keywords:** Mathematical thinking, critical thinking, tasks, development of mathematical skills, diagrams, international studies.

**ПОВЫШЕНИЕ ГРАМОТНОСТИ ЛОГИЧЕСКОГО И КРИТИЧЕСКОГО  
МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Аннотация.** В данной статье освещены важные вопросы логического и критического развития учащихся младших классов, информация о гармонии и общности понятий «логика» и «критика». Рассмотрена важность элементов развития личности и развития интеллектуальных способностей у учащихся всех предметов в программах начальной школы.

**Ключевые слова:** Математическое мышление, критическое мышление, задачи,

*развитие математических навыков, диаграммы, международные исследования.*

---

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi". Zero, matematika bolalarda tafakkur, xotira, diqqat, kuzatuvchanlik va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, matematika o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini o'stirishi, ularning o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va tushunarli bayon eta olishi uchun zamin hozirlaydi. O'zbekiston hukumati innovatsion iqtisodiyotni yaratish, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli maqsad va vazifalarini amalgalash, yuqori samarali ish o'rinalarini modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadlarni qo'ydi. Shunday ekan, mamlakatimizning XXI asrdagi muvaffaqiyati. fanni talab qiladigan va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar uchun malakali mutaxassislariga bo'lган ehtiyojni qondirish nuqtai nazaridan, bu bevosita yuqori sifatli matematik ta'limga bog'liq.

"Matematikani o'rganish ta'limda tizimli rol o'ynaydi, insonning kognitiv qobiliyatlarini, shu jumladan mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi...". Bularning barchasi zamонавија jamiyatda nafaqat yaxshi ma'lumotga ega bo'lган mutaxassislarning, balki qutidan tashqarida fikr yurita oladigan mutaxassislarning mavjudligini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, asosiy umumiyyat ta'limning ustuvor yo'nalishi - o'rganishga, o'z-o'zini tarbiyalashga va olingen bilimlarni amaliyotda qo'llashga qodir bo'lган o'quvchilarning rivojlanish salohiyatini ro'yobga chiqarishdir. Insonning fikrlash qobiliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu mantiqiy savodxonlik, ya'ni har qanday intellektual faoliyatda zarur bo'lган ma'lum bir minimal mantiqiy ko'nikma va bilimdir. Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarini ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatlarini biz tafakkur orqali bilib olamiz.

Demak, tafakkur deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytildi. Aynan tafakkur orqali biz moddiy olamdagи narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo'lamiz. Shu bois, dunyonи bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va bavosita tafakkur muhim rol o'ynaydi. Tafakkur tushunchasining mazmun mohiyati psixologiya darsliklarida olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiyyat psixologiya darsliklarida tafakkurga berilgan ta'riflar turlicha bo'lib, uning ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta'kidlab o'tiladi, xolos.

Jumladan, P.I.Ivanovning darsligida “Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidir-ki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to‘liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga, insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga imkon yaratadi” deb ta’riflandi. Ushbu ta’rifda tafakkurning to‘la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta’kidlab o‘tiladi, xolos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bevosita so‘z yordami bilan ifodalanishi muallifning diqqat markazidan chetda qolgan. M.V.Gamezoning fikricha “Tafakkur voqelikning umumlashgan holda so‘z va o‘tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi”. U tafakkurning umumlashgan so‘z vositasida va vositali atrof-muhit hodisalarini aks ettira olishni ta’kidlaydi. V.V.Bogoslovskiy tahriridagi darslikda ham tafakkurga berilgan ta’rif uning umumlashgan va bilvosita aks ettirish xususiyatlari yoritilgan, xolos.

Xuddi shunga o‘xhash tafakkur xususiyatlari F.N.Gonobolin, K.K.Platonov darsliklarida ham uchraydi. Keltirilgan ta’riflar orasida O.K.Tixomirovning darsligidagi ta’rif nisbatan to‘liqroq deb hisoblanadi. Unda tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday ifodalanadi: “Tafakkur bu – o‘z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib bevosita aks ettirishni xarakterlaydigan umumlashtirish darajasiga va foydalanadigan vositalarga hamda o‘sha umumlashmalar yangiligiga bog‘liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir”. E.G‘oziyev ko‘philik fikriga tayangan holda, tafakkurga quyidagi shartli ta’rifni bergen. “Tafakkur bu – atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon ijtimoiy-sababiy bog‘lanishlarni anglashga yangilik ochishga va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir”. B.S.Abdullayevaning fikricha mantiqiy tafakkur – voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir.

O‘qituvchi o‘quvchilarining tafakkurini to‘g‘ri shakllantirish uchun har bir imkoniyatni to‘la ishga solishi kerak:

1.O‘quvchilarini to‘g‘ri ta’rif berishga, tahlil qilishga, taqqoslashga, obstraksiyalash va umumlashtirishga o‘rgatishi shart.

2.O‘z fikrini to‘g‘ri, aniq va ravon izhor etish yo‘lini tushuntirish.

3. Mustaqil ravishda hukm va xulosa chiqarish, mulohaza yuritish o‘quvchilarda aqliy bilim, ko‘nikma va malakalarini oshiradi. Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun avvalo o‘quvchilar oldiga turli tuman ob’ektlarni mustaqil taqqoslash, ularda o‘xhash va tafovut topish zaruriyatini qo‘yish kerak. Insonning bilish faoliyatida mavzulararo, predmetlararo bilimlarni tizimlashtirish yuzaga keladi.

Binobarin bilimlarning tizimga solinishi aqliy rivojlanishning dastlabki pog'onasi hisoblanadi. O'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy masalalarni yechish bo'yicha bilimlarini baholash hamda ularni amalda qo'llay olish ko'nikmasini aniqlash uchun biz Guliston shahar 17-umumiyl o'rta ta'lif maktabining boshlang'ich sinflarida bir necha bor nazorat ishlari o'tkazdik. Sinov guruhi matematika darslari tashkiliy qismining 5-7 daqiqasi mantiqiy masalalar yechish uchun sarflandi. Tajriba-sinov ishi yakunida nazorat va sinov guruhlari o'quvchilariga nazorat ishi yozma ish, test va mustaqil ish shakllari taqdim etildi, quyida yozma ish variantlarining ba'zilarini keltiramiz. Yozma ish 1-variant

1. Taqsimchada 9 ta olma bor edi. Lola 1 ta olmani yeb qo'ydi. Taqsimchada nechta olma qoldi?

2. Qaysi son tushurib qoldirilgan? 11, 12, 13, ..., 15

3. Taqqoslang: 30 20	30 39	50 48
----------------------	-------	-------

4. 17 va 19 sonlari o'rtasida joylashgan sonni toping.

5. Nuqtalar o'rniga "+", "—" belgilaridan birini qo'ying:  $50 \dots 20 = 70$

2-variant

1. Taqsimchada 8 ta apelsin bor edi. Komila 1 ta apelsinni yeb qo'ydi. Taqsimchada nechta holda o'lchanganda 3 kg chiqdi. Xo'roz bir oyoqda turgan holda o'lchanganda necha kilogramm keladi? (Javob: 3 kg)

2-topshiriq: Daraxt shoxida 9 ta chumchuq qator turibdi. To'rtinchchi chumchuq uchib ketdi.

Daraxt shoxida nechta chumchuq qoldi? (Javob: 8 ta)

3-topshiriq: 500 metr masofaga yugurish musobaqasida 5 ta sportchi qatnashdi. Har bir sportchi qancha masofaga yugurgan? (Javob: 500 m)

4-topshiriq: Stolda 70 dona qog'oz turibdi. Har 10 soniyada 10 ta qog'ozni sanash mumkin.

Bu xolda 50 ta qog'oz sanab olish uchun necha soniya vaqt ketadi? (20 soniya. 10 soniyada birinchi o'ntasi, keyingi o'n soniyada ikkinchi o'ntasi sanaladi. Stolda esa 50 ta qog'oz qoladi.)

5-topshiriq: Bitta tayoqning 2ta uchi bo'lsa, bir yarimta tayoqning nechta uchi bo'ladi? (4ta)

Ushbu ijodiy topshiriqni o'quvchi faqatgina mantiqan fikrlab yecha oladi. Bunda o'quvchi quyidagicha mushohada qilishi mumkin: Nodirning opa-singillari soni uning akalari soniga teng.

Uning singlisi Umidaning akalari soni opasi sonidan uch marta ko'p. Demak, Umidaning 1 ta opasi va 3 ta akasi bor ekan. Oilada 3 ta o'g'il va 2 ta qiz bor.

Maktab tajribasi shuni ko`rsatadiki, o'quvchilarning matematik bilimlarini o'zlashtirilishi va ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishida qiziqarlimateriallarning ishlatilish ikatta yordam beradi.

Qiziqarli materiallarni quyidagi maqsadlarda ishlatilishi yaxshi natija beradi: matematik bilim, mahorat va malakalarining shakllanishida; matematik bilim va malakalarining mustahkamlanishida; matematikani o'rganishida bolalarda shavq-havasni uyg'otishida; matematik ijodkorlik mahorat va malakasi, tasavvurot va tafakkurining shakllanishida;

O'smirlarda ma'rifatni o'zlashtirishga b'lgan shavq-havasini uchaytirilishida ta'limni didaktik o'yinlarga bog'liq qilinishi maqsadga muvofiq. Bolaga o'rgatadigan material qiziqarli bo`lgan holda osonlik bilan o'zlashtiriladi va uning xotirasida yaxshiroq saqlanadi. Bu metodikani o'tkazishdan asosiy maqsad, bolalarni fikrlashga, diqqatini bir joyga to'plashga va e'tiborli bo'lib, mantiqiy, tanqidiy fikrlashga o'rgatishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, hayotdan olingan turli mantiqiy masala-topshiriqlar o'quvchiga zavq bag'ishlaydi. O'quvchi topshiriqni yechish yo'llarini qidiradi.

Bunday topshiriqlar o'quvchining nafaqat matematik bilim va malakalarini mustahkamlaydi, balki uning mantiqiy tafakkurini o'stiradi, o'quvchini izlanishga, topqirlikka, maqsad sari intilishga da'vat etadi.

Bunga o'xshagan mantiqiy topshiriqlar darslikda ko'p uchraydi. Ular o'quvchilar diqqatini darsga qaratishga va ularning ijodiy faoliyatlarini oshirishda katta yordam beradi.

## REFERENCES

1. Adizov B. "Boshlang'ich talimni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari" Toshkent. 2002-yil.
2. Nurmatova Sh.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish: Mag. Diss. Toshkent 2014.
3. Shahriddinovna, K. S. (2023). Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 19, 183-187.
4. Shahriddinovna, K. S. (2023). INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(06), 09-14.
5. Shahriddinovna K. S. Didactic Features Of Development Of Nature Perception Skills Of Primary School Students //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – Т. 19. – С. 183-187.
6. Shahriddinovna K. S. INTRODUCING CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE WITH THE WORLD //American Journal of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №.

06. – C. 09-14.
7. Karimova, S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *Science and innovation*, 1(B6), 214-218.
  8. Karimova S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF" NATURAL SCIENCES" IN THE DEVELOPMENT OF UNDERSTANDING OF NATURE IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B6. – C. 214-218.
  9. Karimova S. CHARACTERISTICS OF NATURAL TEACHING METHODOLOGY //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – C. 737-740.
  10. Karimova, S., & Ashurova, M. (2023). TYPES OF EDUCATION. Modern Science and Research, 2(8), 161–163. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22537>
  11. Mamatova, X., Karimova, S., & Turg'unboyeva, M. (2023). EDUCATION IS UPBRINGING, KNOWLEDGE IS SALVATION. Modern Science and Research, 2(8), 164–166. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22538>
  12. Mamatova H., Karimova, S., & Mamayusupova, Z. (2023). PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. Modern Science and Research, 2(9), 5–8. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23865>
  13. Karimova S., Habibullayeva S. THE ESSENCE OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN PEDAGOGY //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 40-44.
  14. Karimova Sevara Shaxriddin Qizi. (2023). FORMATION OF NATURE AWARENESS SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 43–45. Retrieved from <https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1105>
  15. Mamatova H., Karimova S., Mamayusupova Z. PEDAGOGICAL ANALYSIS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 5-8.
  16. Sevara, K., & Maftuna, S. (2024, February). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIGA QO ‘YILGAN ZAMONAVIY TALABLARNING XUSUSIYATI VA AHAMIYAT. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 2, pp. 65-67).
  17. Sevara, K., & Mahliyo, X. (2024, February). BOSHLANG‘ICH SINF

O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 2, pp. 68-70).

18. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 1, No. 4, pp. 54-57).
19. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 1, No. 4, pp. 54-57).
20. Turaboeva, S. (2022). ОЛАМНИНГ ЛИСОНИЙ МАНЗАРАСИДА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ВОҚЕЛАНИШИ. *Science and innovation*, 1(B8), 1516-1523.
21. Turaboeva, S. (2022). IMPLEMENTATION OF LINGUOCULTUROLOGICAL UNITS IN THE LANGUAGE PICTURE OF THE WORLD. *Science and Innovation*, 1(8), 1516-1523.
22. Turaboeva, S. (2022). IMPLEMENTATION OF LINGUOCULTURAL UNITS IN THE LANGUAGE LANDSCAPE OF THE WORLD. *Science and Innovation*, 1(8), 1194-1201.